

OLIV TA'LIM TASHKILOTLARIDA MEXANIKA BO'LIMINI O'QITISHDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI

Mavlonova Xilola Jumayevna

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti fizika o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8176534>

Annotatsiya: Maqolada fizika fani mexanika bo'limini texnika oliy ta'lim tashkilotlari talabalariga innovatsion ta'lim sharoitida o'qitishda pedagogik texnologiyalar va pedagogik faoliyatning uzluksizligini, shu bilan birga uzviylikligini innovatsion ta'lim yondashuvlar asosida ta'minlashning ahamiyati sifatida o'qitish jarayonining samaradorligi o'quv jarayonini bosqichma-bosqich loyihalash, jarayonni modellashtirish hamda algoritmash, ta'lim natijasini oldindan aniq belgilanishiga bog'liqlikni taqazo etadi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, loyihalash, ilmiy-nazariy, interaktiv, texnologiya, harakat, ta'lim, bilim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmonida belgilangan fan-texnika, ta'lim, texnologiyalar sohasini takomillashtirish, o'qituvchi-tarbiyachi hamda mutaxassislarning ta'lim sifatini tubdan oshirish, matematika hamda informatika, chet tillari, geografiya, fizika, kimyo, biologiya, geometriya kabi boshqa muhim hamda talabi yuqori bo'lgan aniq, tabiiy va gumanitar fanlarni chuqurlashtirilgan tarzda o'rganish kabi muhim vazifalar belgilab berilgan.

Pedagogika fanida "innovatsion ta'lim faoliyati" tushunchasi keng semantik doiraga ega. Bu atama quyidagicha tushuniladi: pedagogik faoliyat turi; ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan pedagogik innovatsiyalarni rejalashtirish va amalga oshirishning ijodiy jarayoni; o'qituvchining ijodiy salohiyatini aks ettiruvchi ijtimoiy-pedagogik hodisa. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida innovatsion ta'lim faoliyati maxsus tashkil etilgan, innovatsion ta'lim jarayonida tashkil etiladi va maqsadga erishiladi. Innovatsion ta'lim faoliyati, yuqori darajadagi umumlashtirilgan bilim, umumlashtirilgan texnikalar tizimiga ega bo'lish va talabalarni o'z kasbi bo'yicha har qanday vazifalarni bajarish uchun bilimlarini samarali qo'llash qobiliyatining rivojlanganligiga bog'liq bo'ladi.

Innovatsion ta'lim faoliyati o'z ichiga yangilikni yaratish, yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahrir qilish, samaradorlikka baho berish kabilarni qamrab oladi.

Yangilik - bu yangi faoliyat turi hisoblanib, yangi metod, metodika, texnologiyalarni o'z ichiga oladi. V.I.Zagvyazinskiy yangi tushunchasiga ta'rif berib, pedagogikadagi yangilik bu faqatgina g'oya emas, balki hali foydalanilmagan yondashuvlar, metodlar, texnologiyalardir, lekin bu pedagogik jarayonning unsurlari majmuan yoki alohida olingan unsurlari bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoitda va vaziyatda oliy ta'limda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etishning ilg'or boshlanmalarini o'zida aks ettiradi.

Yangilik kiritishning muhim sharti muloqotning yangi vaziyatini paydo bo'lishidir. Innovatsion ta'lim faoliyati tahlili yangilik kiritishning samaradorligini belgilovchi muayyan me'yorlardan foydalanishni talab qiladi. Innovatsion ta'lim faoliyatiga o'qituvchi pedagog yangilik kiritishi muhim sanaladi, Yangi metod usul vositalardan foydalanib dars jarayonini tashkil etish ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tashkilotlarida o'qituvchining innovatsion ta'lim

faoliyatini muvaffoqiyatli amalga oshirishi uchun innovatsion ta'limda mustaqil qaorlar qabul qilish, ma'lum bir tavakkal qilish, innovatsiyani amalga oshirish jarayoniga yuzaga keladigan ziddiyatlarni vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal qilishi innovatsion ta'lim to'siqlarni bartaraf etish o'qituvchi pedagogning eng muhim qobiliyatlaridan sanaladi.

Innovatsion ta'lim sharoitlarda o'qituvchi faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi kabi motivlar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa talabalarni fizika fani mexanika bo'limini samarali o'zlashtirishga yaxshi natija beradi.

Fizika fani mexanika bo'limini texnika oliy ta'lim muassasalari talabalariga innovatsion ta'lim sharoitda o'qitishda pedagogik texnologiyalar va pedagogik faoliyatning uzluksizligini, shu bilan birga uzviyliksizligini innovatsion ta'lim yondashuvlar asosida ta'minlashning ahamiyati talabalarining fanga qiziqishini oshiradi, ilmiy bilish qobiliyatlarini, mustaqil bilimlarni egallashga, mustaqil izlanishga, mustaqil ixtirolar qilishga fizika fani bo'limlarini mustaqil egallashga yordam beradi.

Texnika oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarga fizika fani mexanika bo'limini inovatsion sharoitda o'qitishda ilmiy faoliyatning ko'rish, eshitish, bilish, anglash, tanlash va ilmga ijodiy yondashish usullari muhim ahamiyatga ega. Barcha xususiyatlarga ega bo'la turib, ilmga ijodiy yondashilmasa, ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Innovatsion ta'lim sharoitida texnika oliy ta'lim tashkilotlarida fizika fanining mexanika bo'limini o'qitishning axborot jamiyatida, talabalar bilishi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalar hajmining oshishi, integratsion jarayonlarning optimal variantlarini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Bu kabi keng qamrovli jarayonlarni tashkil etish, boshqarish va yo'naltirish uchun esa, albatta, talabalardan tinimsiz ravishda o'z ustida ishlash va intellektual salohiyatni oshishiga imkoniyat yaratadi.

Fizikadan talabalarining dasr hamda dasrdan tashqaridagi mustaqil ishlarini axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida rivojlantirish: zamonaviy didaktik materiallar, yuqori darajadagi natijaviylik, ko'rgazmalilik hamda interfaollik aniq shartlarda o'qitishga moslashishni ta'minlaydi; talabalar motivatsiyasi, bilishga qiziqishini, o'qitish tezligini oshiradi.

Talabalarining faoliyatida mustaqil ishlarni dars va darsdan tashqari vaqtlarda tashkillashtirishda axborot resurslardan foydalanish jarayonini tashkillashtirishni amalga oshirilsa talabalarining mantiqiy fikrlash, mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatlari, mavzularni mustaqil o'rganish ko'nikmalarini egallashga yordamlashadi.

Texnika oliy ta'lim tashkilotlari talabalarining faoliyatida innovatsion ta'lim sharoitida fizika fani mexanika bo'limidan masalalar yechish jarayoni o'quv-bilish jarayonining muhim ko'rinishlaridan bo'lib, talabalar aynan shu jarayonda nazariy bilimlarni, fizikani amaliyotda foydalanish ko'nikmalarini chuqur egallashadi, masalalar yechish bo'yicha ijodiy faoliyatlari shakllanadi hamda amaliy ko'nikmalarni amaliyotda qo'llash bo'yicha ijodiy qobiliyatlari shakllanadi. Masalalar yechish orqali mustaqil fikrlash qobiliyatlari konstruktorlik qobiliyatlari shakllanib boradi.

Fizika fani mexanika bo'limini o'qitish faoliyatida masalalar yechishdan ta'lim maqsadini belgilash hamda mazmunini aniqlash, ta'lim vazifalari hamda maqsadlarini pedagogik amaliyotga joriy etish, yangi ma'lumotlarni qiziqarli bayon etish, o'tilgan mavzuni o'rganilganlik holatini aniqlash, talabalarda kerak nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda eksperimental malakalarni rivojlantirish hamda shakllantirish, o'tilgan mavzuni

umumlashtirish, takrorlash hamda mustahkamlash, talabalarda fizikadan mustaqil ijodiy fikrlash faoliyatni takomillashtirish, ijodiy qobiliyatni dars jarayonida rivojlantirish hamda nihoyat talabalarning egallagan umumiy amaliy ko'nikma, nazariy bilim hamda eksperimental malakalari darajasini, hajmini aniqlashda qo'llaniladi. Eng muhimi, standart, amaliy-tatbiqiy, nostandart, uslubiy, tabiiy-ilmiy, eksperimental mazmundagi masalalardan maqsadli ravishda foydalanish talabalarda mantiqiy ketma-ket fikrlash, fizikadan yagona ilmiy dunyoqarashni rivojlantirish hamda ulardagi shaxsiy ta'limiy sifatlarni takomillashtirishda eng asosiy vosita sanaladi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son farmoni.
2. Загвязинский В. И. Методология и методы психолого-педагогического исследования. 5-е изд. М., 2008; 6-е изд. М.: Акад., 2009.
3. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi, 2006. – 159 b.
4. Mavlonova, X. (2023). INNOVATSION TA'LIM SHAROITIDA OLIY TA'LIM MUASSASASI TALABALARINI MEXANIKA BO'LIMINI O'QITISH METODLARIDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI. Академические исследования в современной науке, 2(16), 11-18.
5. Mavlonova, X. (2023). OLIIY TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARIGA FIZIKA O 'QITISH METODIKASINI RIVOJLANTIRISH. Наука и инновация, 1(17), 33-37.
6. Mavlonova, X. (2023). OLIIY TA'LIM TASHKILOTI TALABALARIGA FIZIKA FANINI O 'QITISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLAOGIYALARINING AHAMYATI. Молодые ученые, 1(10), 13-16.
7. Bozarov, D. (2022). CHIZIQLI VA KVADRATIK MODELLASHTIRISH MAVZUSINI MUSTAQIL O 'RGANISHGA DOIR MISOLLAR. Евразийский журнал математической теории и компьютерных наук, 2(6), 24-28.
8. Dilmurod, B. (2023). ORIENTIRLANMAGAN KO'PXILLIKDA SILLIQ AKSLANTIRISHLARNING GOMOTOP BO'LISHI. UNIVERSAL JOURNAL OF MATHEMATICAL THEORY AND COMPUTER SCIENCES, 1(1), 13-18.
9. Bozarov, D. (2022). PROBLEMS OF SYSTEMS OF LINEAR ALGEBRAIC EQUATIONS. Science and Innovation, 1(2), 163-171.
10. Dilmurod, B., & Islom, A. (2023). PARALLEL IKKITA TO'G'RI CHIZIQ ORASIDAGI MASOFA. Innovations in Technology and Science Education, 2(8), 465-478.
11. Bobokhonov, S. S., & Namozov, D. (2023, May). A generalization of Cauchy's theorem. In International Conference on Science, Engineering & Technology (Vol. 1, No. 1, pp. 88-89).
12. Bozarov, D. U. (2022). IKKI O 'ZGARUVCHILI FUNKSIYANING EKSTREMUMIDAN FOYDALANIB, TEKISLIKDAGI IKKITA FIGURA ORASIDAGI MASOFANI TOPISH. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(11), 292-301.